

## O‘Zbek Tili Egalarining Alisher Navoiy Onimiga Oid Assotsiatsiyalari Tahlili

Saydaliyeva Muxlisaxon Baxtiyor qizi<sup>1</sup>, Axmedova Aziza Rustamovna<sup>2</sup>

**Rezyume:** Ushbu maqola tilshunoslikda onomastik birliklarning assotsiativ xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek tili sohiblari orasida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari asosida Alisher Navoiy stimul so‘zinig assotsiativ maydoni tahlil qilindi.

**Kalit so‘z va tushunchalar:** Onomastik birlik, pretedent nom, assotsiatsiya, assotsiativ maydon, turtki so‘z, reaksiya.

Har qanday millat vakillarining lisoniy ongida onomastik birliklarning o‘rnini aniqlash avvalo ularning shu hamjamiyat vakillarining kognitiv bazasida tutgan o‘rni, assotsiativ maydon birliklarini tahlil qilish orqali yuzaga chiqadi. Rus millatiga mansub kishilarning kognitiv bazasidagi mashhur onomastik birliklar – pretedent nomlar bilan bog‘liq dastlabki assotsiativ xususiyatlar D.B.Gudkov tomonidan V.V.Krasnix va I.V.Zaxarenkolar bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan assotsiativ tajriba natijalari asosida amalga oshirildi. Keyinchalik L.A.Kuzmenkoning rus va amerikaliklar lisoniy xotirasida diniy bilimlar shakllanishi, S.S.Xvatovaning til sohiblari tomonidan pretedent nomlarni identifikatsiyalashda o‘ziga xos etnomadaniy xususiyatlar, V.V.Janayevaning kommunikatsiyada yot madaniy pretedent fenomenlarning lingvokognitiv asoslari, V.L.Latishevaning pretedent fenomenlar milliy lisoniy tafakkurning yadroviy elementi sifatidagi xususiyatlari, X.A.X.Xadining lug‘at va nutqdagi etalon obrazlar turg‘un o‘xshatishlar obyekti sifatida voqelanishi, B.X.Pseunovaning zamonaviy Amerika yoshlari slengida antroponimlarning psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilingan dissertatsion ishlarida<sup>3</sup>; shuningdek, I.A.Girutskiy, Y.A.Borisova, N.V.Bubnova, N.S.Abramova va T.A.Zuyevalar<sup>4</sup>ning maqolalarida ham mashhur onomastik birliklarning til vakillari lisoniy xotirasidan o‘rin olishi bilan bog‘liq milliy-madaniy, kognitiv, psixolingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlari assotsiativ tajribalar asosida tahlil qilinadi.

<sup>1</sup> O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi;

<sup>2</sup> O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi

<sup>3</sup> Кузьменко Л.А. Национально-культурная специфика функционирования религиозного знания в языковом сознании русских и американцев (экспериментальное исследование): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: Тверской гос. ун-т, 2003. – 18 с.; Хватова С.С. Этнокультурная специфика идентификации прецедентных имён носителями языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: Тверской гос. ун-т, 2004. – 18 с.; Джанаева В.В. Лингвокогнитивные основы коммуникации: инокультурные прецедентные феномены: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Владикавказ: Кабардино-Балкарский гос. ун-т, 2008. – 22 с.; Латышева В.Л. Характеристика прецедентных феноменов как ядерных элементов национального языкового сознания (на материале русского и французского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск: Иркутский гос. лингв. ун-т, 2011. – 19 с.; Хади А.Х.Х. Образы-эталоны как объекты устойчивых сравнений в словаре и речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж: Воронежский гос. ун-т, 2011. – 22 с.; Псеунова Б.Х. Антропонимы в современном американском молодежном сленге (психолингвистический анализ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: Ин-т языкознания РАН, 2011. – 24 с.

<sup>4</sup> Гицуцкий И.А. Виды словесных ассоциаций // Вести БГПУ, 2000. № 3. – С. 61–65; Абрамова Н.С., Зуева Т.А. Ассоциативный эксперимент как способ выявления вербального кода эргонима (2014) // <https://journals.uspu.ru/attachments/article/1867/01.pdf>; Бубнова Н.В. Системный подход к исследованию ассоциативно-культурного фона ономастических единиц: от регионального к общнациональному уровню // Вестник РУДН, серия Теория языка. – М., 2016. №4. – С. 26–35; Борисова Ю.А. Ассоциативный эксперимент в современных психолингвистических исследованиях // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. 2019. Т. 8. – № 1A. – С. 265–275.



Biz tadqiqotning keyingi qismlarida onomastik birliklarga aloqador o‘zbek lingvomadaniy hamjamiyatı vakillarining assotsiatsiyalarini tahlil qilib chiqamiz.

Assotsiativ tajribani o‘tkazish uchun dunyo tilshunosligi, xususan, rus tilshunosligi doirasida D.Gudkov, V.Krasnix, L.Kuzmenko, S.Xvatova, V.Janayeva, V.Latisheva, X.Xadi, B.Pseunova; o‘zbek tilshunosligi doirasida esa D.Lutfullayeva, D.Xudoyberanova, B.Tajiboyev va boshqa tilshunoslarning ilmiy ishlari tajribalaridan nazariy manba sifatida foydalanildi, tajribani tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy va amaliy vazifalarni belgilash yuqorida keltirilgan ishlar asosida amalga oshirildi.

So‘rovnoma jami 112 sinaluvchi ishtirok etdi. Tajribada ishtirok etgan sinaluvchilarning katta qismi talabalardan iborat Sinaluvchilar yoshga ko‘ra 18–25 yosh oralig‘ida 96 nafar (85.72%), 26–34 yosh oralig‘ida 8 nafar (7.14%), 35 va undan yuqori yoshdagilar ham 8 nafar (7.14%) sinaluvchilarni tashkil etdi.

Milliy onomastik birliklar shaxslarning hayot tarzida doimiy mavjud va ularning faolligi har doim yuqori ekanligi bilan xarakterlidir. Individlarning mashhur onomastik birliklar bilan doimiy aloqasi lingvomadaniy hamjamiyat taraqqiyoti doirasida ham ahamiyatlidir. O‘tkazilgan erkin assotsiativ tajriba til sohiblarining lisoniy ongida milliy pretsedent nomlar ortida turgan bilimlar tizimi hamda ularning tafakkurida onimning qanday lisoniy birliklarni javob reaksiysi sifatida aks ettirishi, kishilarning emotsiyonal-hissiy bahosini ifodalashdagi o‘rni, shuningdek, alohida shaxslarning onimlarga subyektiv munosabati singari qator obyektiv axborotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir. Ma’lum pretsedent nomning assotsiativ maydonini bunday tajriba natijalari orqali aniqlash aksariyat til sohiblarining nisbiy o‘rtacha umumiylashtirishini namoyon etganligi uchun ham u yoki bu millatning dunyoqarashi, olam manzarasi haqidagi umumiylashtirishini hosil qiladi.

Quyida ko‘p sonli sinaluvchilar ustida o‘tkazilgan tajriba natijalari asosida *Alisher Navoiy* onimining assotsiativ maydonini tahlil qilamiz. Assotsiativ maydon birliklarini ikkiga – ikki va undan ortiq takroriy kelgan yuqori chastotali birliklarini tashkil etuvchi maydonning yadro qismi; yakka tartibda kelgan birliklarni esa yaqin va uzoq chegara qismlariga ajratgan holda tahlil qilamiz.

#### *Alisher Navoiy* pretsedent nominining assotsiativ maydoni

<b>PNni tanish darajasi: 100%</b> <b>Yolg‘on assotsiatsiyalar: 0%</b> <b>Haqiqiy assotsiatsiyalar: 100%</b>	
Assotsiativ maydonning tarkibiy qismlari	Assotsiativ maydonning gender xususiyatlari
<b>Yadro qismi:</b> G‘azal mulkining sultonı – 17, “Xamsa” – 14, shoir – 11, Alisher – 8, viloyat nomi – 6, o‘zbek tili asoschisi – 6, buyuk mutafakkir – 5, “Xamsa” muallifi – 5, so‘z mulkining sultonı – 4, g‘azal – 3, shoir va vazir – 2, viloyat – 2, Hirot – 2.	<b>Ayollarda:</b> G‘azal mulkining sultonı – 12, “Xamsa” – 11, viloyat nomi – 6, buyuk mutafakkir – 5, Alisher – 5, shoir – 5, o‘zbek tili asoschisi – 5, “Xamsa” muallifi – 5, g‘azal – 3, shoir va vazir – 2, so‘z mulkining sultonı – 2, Hirot – 2, bulbul, turk devoni asoschisi, adib, hirotlik shoir, bilimdonlik, so‘zlar sultonı, “Turk olamini o‘z qalami bilan tebratdi”, o‘zbek adabiy tilining asoschisi, turkiy adabiy til asoschisi, turkiy til ijodkori, turkiy tilda ijod qilgan, uylanmagan, xamsanavis, shoirlarning sultonı, shu nomli roman, komil inson orzusi, buyuk shoir, ona shahrim, eng boy shoir.
<b>Yaqin chegara qismi:</b> turk devoni asoschisi, adib, buyuk shoir, eng boy shoir, hirotlik shoir, she’riyat va g‘azallar mulkining sultonı, bilimdonlik, so‘zlar sultonı, “Turk olamini o‘z qalami bilan tebratdi”, o‘zbek adabiy tilining	<b>Erkaklarda:</b> Shoir – 6, g‘azal mulkining sultonı – 5, Alisher – 3, “Xamsa” – 3, viloyat – 2, so‘z mulkining sultonı – 2, o‘zbek tili asoschisi, daho, she’riyat va g‘azallar mulkining sultonı, Navoiy portreti, mening vatanim, qishlog‘im, aql, bo‘ydoq, aruz.



asoschisi, turkiy adabiy til asoschisi, turkiy til ijodkori, turkiy tilda ijod qilgan uylanmagan, xamsanavis, shoirlarning sultonii, komil inson orzusi, daho.	
<b>Uzoq chegara qismi:</b> bulbul, ona shahrim, shu nomli roman, Navoiy portreti, mening vatanim, qishlog‘im, aql, bo‘ydoq, aruz.	

*Alisher Navoiy* pretsedent nomi bilan bog‘liq natijalar tahlil qilinsa, onimni tanish darajasi<sup>5</sup> 100%ni ko‘rsatdi, barcha respondentlarda javob reaksiyalari kuzatilgan. Javob reaksiyalari 42 o‘rinda so‘z va 69 o‘rinda so‘z birikmasi va bir o‘rinda sodda gap shaklida kelgan.

Assotsiativ maydonning barcha birliklari *Alisher Navoiy* turtki so‘zi bilan mantiqan bog‘langanligini nomning sinaluvchilarga yaxshi tanish ekanligi bilan izohlash mumkin. Biroq sinaluvchilar aksariyat o‘rinlarda ma’lum sharoit va vaziyatlarga ishora qiluvchi pretsedent nomga xos yaqqol ajralib turuvchi differensial jihatlarni emas, boshqa qahramonlar uchun ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan umumiyligini belgilari orqali o‘z assotsiatsiyalarini namoyon etadilar.

*Alisher Navoiy* nomi boshqa pretsedent birliklar bilan ham uzviy assotsiatsiyalar hosil qilgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, assotsiativ maydon yadrosining markazida turgan “G‘azal mulkining sultonii” javob reaksiyasi Maqsud Shayxzoda tomonidan Navoiy shaxsiga berilgan epitet bo‘lib, keyinchalik bu epitet xalq orasida keng ommalashdi va perifraza maqomiga ko‘tarildi. Shuningdek, o‘zbek tili egalariga yaxshi tanish bo‘lgan ushbu jumlalar ayni damda pretsedent jumla ham hisoblanadi.

*Alisher Navoiy* antroponomi assotsiativ maydonining yadrosida eponimlashish jarayoniga oid assotsiatsiyalar mavjudligi bilan ham ahamiyatli sanaladi. Navoiy viloyatiga aloqador javob reaksiyalari (transonimizatsiya hodisasi) til sohiblarining lisoniy ongida tarixiy shaxs, mutafakkir Alisher Navoiy bilan aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy assotsiativ maydonida uning ijodi va faoliyatiga oid assotsiatsiyalar yetakchilik qiladi. Shuningdek, shaxsiy sifatlari (bilimdonligi, daholigi, ijodkorligi, kashshofligiga oid) bilan bir qatorda hayot yo‘li – bo‘ydoqlik taqdiriga aloqador assotsiatsiyalar ham kuzatildi. Qizig‘i, Navoiy portretini tashkil etuvchi tashqi ko‘rinish va uning atributlari bilan bog‘langan assotsiatsiyalar sinaluvchilarda kuzatilmagan.

Tajriba natijalaridan ko‘rish mumkinki, o‘zbeklarning kognitiv bazasida *Alisher Navoiy*ga oid boy assotsiativ maydon mavjud. Bu assotsiativ maydonning mazmuniy guruhlari ham rang-barangdir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Кузьменко Л.А. Национально-культурная специфика функционирования религиозного знания в языковом сознании русских и американцев (экспериментальное исследование): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: Тверской гос. ун-т, 2003. – 18 с.
2. Хватова С.С. Этнокультурная специфика идентификации прецедентных имён носителями языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь: Тверской гос. ун-т, 2004. – 18 с.
3. Джанаева В.В. Лингвокогнитивные основы коммуникации: инокультурные прецедентные феномены: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Владикавказ: Кабардино-Балкарский гос. ун-т, 2008. – 22 с.
4. Латышева В.Л. Характеристика прецедентных феноменов как ядерных элементов национального языкового сознания (на материале русского и французского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иркутск: Иркутский гос. лингв. ун-т, 2011. – 19 с.
5. Хади А.Х. Образы-эталоны как объекты устойчивых сравнений в словаре и речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж: Воронежский гос. ун-т, 2011. – 22 с.

<sup>5</sup> Pretsedent birliklarning tanishlik ko‘rsatkichi D.B.Gudkov tomonidan taklif etilgan.



6. Псеунова Б.Х. Антропонимы в современном американском молодежном сленге (психолингвистический анализ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: Интязыкознания РАН, 2011. – 24 с.
7. Гирукский И.А. Виды словесных ассоциаций // Вести БГПУ, 2000. № 3. – С. 61–65.
8. Абрамова Н.С., Зуева Т.А. Ассоциативный эксперимент как способ выявления вербального кода эргонима (2014) // <https://journals.uspu.ru/attachments/article/1867/01.pdf>
9. Бубнова Н.В. Системный подход к исследованию ассоциативно-культурного фона ономастических единиц: от регионального к общенациальному уровню // Вестник РУДН, серия Теория языка. – М., 2016. №4. – С. 26-35.
10. Борисова Ю.А. Ассоциативный эксперимент в современных психолингвистических исследованиях // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. 2019. Т. 8. – № 1A. – С. 265-275.

